

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**



**60410100-“IQTISODIYOT” ta’lim yo’nalishi bo’yicha iqtisodiyot tarmoqlarida  
kamida besh yil ish stajiga ega bo’lgan fuqarolarni (abituriyentlarni ) kechg'i va  
masofaviy ta’lim shakllariga tabaqalashtirilgan to’lov kontrakt asosida o’qishga  
qabul qilish bo’yicha suhbat o’tkazish va baholash**

**DASTURI**

**Tuzuvchilar:**

Q.J.Mirzayev – SamISI “Raqamli iqtisodiyot”  
kafedrası mudiri, i.f.d., professor  
Z.S.Artikov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrası  
mudiri, PhD, dotsent

**Taqrizchilar:**

K.B.O‘razov – SamISI “Buxgalteriya hisobi va  
audit” kafedrası professori, i.f.d.  
N.U.Arabov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU  
“Inson resurslarini boshqarish” kafedrası mudiri,  
i.f.d., professor

Ushbu dastur Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi tomonidan  
tasdiqlangan (2025-yil “28” avgustdagi 1-sonli majlis bayoni).

## KIRISH

Mazkur dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida 2025/2026 o'quv yili hamda keyingi uch yilda davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PF-43–sonli farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrda "Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 675-son qarorlari talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik faoliyatini yuritish, cheklangan moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish mutaxassislardan chuqur iqtisodiy bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Xo'jalik yuritish bu asosan optimal va rasional qarorlar qabul qilish bilan bog'likdir. Bu ishlar mulk shaklidan, turlaridan qat'iy nazar barcha xo'jalik obyektlari uchun bir xil qarashlarni talab qiladi. Shu bois iqtisodiyotni rivojlantirish borasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb hisoblanadi.

### **60410100-“Iqtisodiyot” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar**

Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida eng asosiy vazifalardan biri – ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir.

Sirtqi va kechki ta'lim shakliga, suhbat natijalariga ko'ra "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalikga qabul qilinayotgan shaxslar – ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish yo'llarini, ularning milliy iqtisodiyotni ko'tarishdagi rolini va o'rnini bilishi borasida tegishli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari zarur.

"Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi bo'yicha suhbat tarzida talabalikga qabul qilinayotgan shaxslarning bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar:

- iqtisodiyotdagi mavjud muammo va vazifalarni mantiqiy ketma-ketligini va o'zaro aloqadorligini;
- turli xil iqtisodiy va tashkiliy-texnikaviy masalarni tahlil qilaolish;
- mahsulot ishlab chiqarish va turli xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar kirib keladigan pul oqimini ko'paytirish yo'llarini bilish;
- mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotishdagi tavakkalchilikni baholash;
- korxonaning iqtisodiy–moliyaviy holatini tahlil qilish;

- ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarishning zamonaviy modellaridan foydalanish;
- mavjud resurslardan samaradorli foydalanish yo‘llarini;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko‘rsatilayotgan xizmatlardan kutilayotgan daromad (foydani)ni aniqlash;
- korxonaning iqtisodiy munosabatlar qatnashchisi sifatidagi xuquqiy holatini baholash.
- ishlab chiqarishni joriy va istiqbolli rejalashtirish, prognozlashtirish hamda boshqarish usullarini bilish;
- korxonaning salohiyati va resurslardan foydalanish;
- korxonaning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini baholash va tahlil qilish;
- korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud bo‘lgan yo‘llarni topish;
- korxona faoliyati yo‘nalishlaridagi tavakkalchilikni baholash;
- korxona faoliyatiga moliyaviy resurslarni jalb etish holatini tahlil qilish.

### **Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati bo‘yicha savollar**

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonidagi iqtisodiy sohaga doir vazifalar mazmuni va mohiyati.
2. Kambag‘allikni qisqartirish va aholining zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash dasturlarining mazmuni va mohiyati.
3. “Temir daftar”ga kiritilgan ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar mazmuni va mohiyati.
4. Mamlakatda ehtiyojmand aholi qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va “Mahallabay” ishlash tizimi asosida hududlarda amalga oshirilgan ishlar mazmuni va mohiyati.
5. Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarniing tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son Farmoni mazmuni va mohiyati.
7. Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi tomonidan ko‘rsatilgan moliyaviy yordam asosida ajratilgan kreditlar mazmuni va mohiyati.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida” 24.07.2020-yildagi O‘RQ-630-son Qonunining mohiyati va mazmuni.
9. Aholining ishsiz yoshlar va ayollarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish hamda ularning bandligini ta‘minlash yo‘llari.

10. Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirishning moliyaviy manbalari mazmuni va mohiyati.
11. Mahallaning “o‘sis nuqtasi”ni aniqlash.
12. “Mahallabay” ishlash tizimi: oilaviy tadbirkorlik turlari, biznes loyihalarini amalga oshirishni ishlab chiqish va amalga oshirish instrumentlari.
13. Tadbirkorlik subektlarining eksport va import amaliyotlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mazmuni va mohiyati.
14. Biznesda innovatsion mahsulotlar yaratish va ularni tijoratlashtirishni rivojlantirish.
15. Mahallalarda xizmatlar turlarini rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda startap g‘oyalar va biznes-inkubatorlar.
16. O‘zbekistonda elektron biznesning rivojlanish istiqbollari.
17. O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari
18. O‘zR Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazmuni va mohiyati.
19. “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni mazmuni va mohiyati.
20. 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-sonli “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili” Farmoni mazmuni va mohiyati.
21. “2015-2019-yillar uchun tarkibiy islohotlar, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga doir chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi Qarorlar mazmuni va mohiyati.
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli ‘O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi Qaror mazmuni va mohiyati.
23. 2018-yil 6-avgustdagi PQ-3899-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni integratsiyalash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarorning mazmuni va mohiyati.
24. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarda iqtisodiyotning o‘rni.
25. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning ahamiyati.
26. 2022 yil 21 iyunda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari muzokaralarida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.
27. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-iyun kuni aholini kasb-hunarga tayyorlash va monomarkazlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi asosiy vazifalar.
28. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 26-may kuni hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, ularni zarur infratuzilma bilan ta’minlash chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

29. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 31-mart kuni makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, biznesni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

30. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hamda milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning o'rni.

31. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasi ulushini ko'paytirishda iqtisodiyotning ahamiyati.

32. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirishda iqtisodiyotning ahamiyati.

33. Iqtisodiyotni avtomatlashtirilgan tizimini zamonaviy dasturiy ta'minotlarining qo'llash asosida modernizatsiya qilish ahamiyati.

34. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish ulushini ko'paytirishning ahamiyati.

35. Milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlash xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirishning ahamiyati.

36. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida islohotlar jarayonida xalq manfaatlarini ro'yobga chiqarish borasida bajarilgan ishlarning natijasi to'g'risidagi fikr va mulohazalari.

37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlararo ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan siyosati.

38. O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish borasida siyosatining mohiyati, mazmuni va ahamiyati.

39. Sh.M.Mirziyoyev "Mulkdorlar sinfini shakllantirish va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash" to'g'risida Farmon mazmuni va mohiyati.

40. Sh.M.Mirziyoyev Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida Farmon mazmuni va mohiyati

41. 2018-yil 27-iyundagi PQ-3777-son "Xar bir oila - tadbirkor" dasturini amalga oshirish tugrisida» qarorning mazmuni va mohiyati

42. 2019-yil 24-oktyabrdagi PQ-4498-son "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyixalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning kushimcha chora-tadbirlari tugrisida"gi qaror mazmuni va mohiyati

43. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-avgustdagi PQ-4862-sonli "2020-2021-yillarda iqtisodiy o'sishni tiklash va iqtisodiyot tarmoqlari hamda sohalarida tizimli tarkibiy islohotlarni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazmuni va mohiyati

44. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4862-sonli "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazmuni va mohiyati

45. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligini ta’minlash mazmuni va mohiyati

46. 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investisiya muhitini tubdan yaxshilash choratadbirlari to‘g‘risida” Farmoni mazmuni va mohiyati.

47. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.02.2022-yildagi 72-son O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori hokim yordamchilari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida mazmuni va mohiyati.

### **60410100-“IQTISODIYOT” ta’lim yo‘nalishi sohasida bilim va kasbiy ko‘nikmalarining mavjudligi bo‘yicha savollar**

- 1.Tadbirkorlikni tushunchasi mohiyati va ahamiyati.
- 2.Tadbirkorlikning umumiy qoidalari.
- 3.Tadbirkorlikning subyektlari, shakllari va turlari.
- 4.Tadbirkorlikning kelib chiqishining huquqiy asoslari.
- 5.O‘zbekistonda tadbirkorlikni ko‘llab – kuvvatlash yo‘nalishlari.
- 6.Tadbirkorlik va raqobat.
- 7.Xizmat sohasida tadbirkorlik faoliyatining shakllari.
- 8.Respublikamizda kasanachilik va uning rivojlanish istiqbollari.
- 9.Tadbirkorlikning rivojlanish tarixi.
- 10.Ishlab chiqarish tadbirkorligi.
- 11.Tijorat tadbirkorligi.
- 12.Moliyaviy tadbirkorlik.
- 13.Konsalting tadbirkorlik
- 14.Tadbirkorlikning shakllari.
- 15.Kichik biznes va tadbirkorlikda rahbarning boshqaruv uslubi
- 16.Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari
- 17.Biznes rejaning mohiyati va asosiy bo‘limlari tasnifi.
- 18.Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat qiluvchi infratuzilmaning vazifalari va funksiyalari.
- 19.Infratuzilmaning tavsiflanishi
- 20.Respublikada infratuzilmaning zamonaviy holati va muammolari
- 21.Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati, tarkibi va elementlari.
- 22.Mahsulot tannarxi va uni hisoblash usullari.
- 23.Mahsulot tannarxini pasaytirishning yo‘llari.
- 24.Kichik biznes va tadbirkorlikning moliyaviy faoliyatini ifodaluvchi ko‘rsatkichlar.
- 25.Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy tahlili.
- 26.Tadbirkor rahbar faoliyatida mojaroli holatlar va ularni hal etish usullari.

27. Tadbirkorning ishbilarmon etikasi, madaniyati va obrusi
28. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish – mamlakatimizda iqtisodiy o‘rinishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili.
29. Kichik biznesni jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini oshirish.
30. Yoshlarni kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilishning zarurligi va ahamiyati.
31. Samaradorlik tushunchasi va mohiyati.
32. Bozor munosabatlari sharoitida samaradorlikni oshirishning o‘rni va ahamiyati.
33. Ishlab chiqarish samaradorligini mezonlari va ko‘rsatkichlari.
34. Ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari.
35. Korxona iqtisodiy xavfsizligi tushunchasi va tasnifi
36. Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning maqsadi va vazifalari
37. Korxonada iqtisodiy xavfsizlik xizmati, uning funksiyalari va tarkibi
38. Korxonaning tijorat siri mohiyati
39. Korxona tushunchasi va belgilari.
40. Korxonalarning shakllari va turlari.
41. Korxonalar faoliyatini lisenziyalash.
42. Korxona faoliyatini iste’molchilar talabiga yo‘naltirish.
43. Korxonani tashkil etish qoidalari.
44. Korxonani barpo etish xujjatlari va ularni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi.
45. Korxona mulki.
46. Korxonaning moliyaviy barqarorligi.
47. Korxonaning tashki iqtisodiy shartnomalari.
48. Korxona faoliyatida boshqaruv tushunchasi va uning obyektiv zaruriyati.
49. Korxona xavfsizligini ta’minlashning maqsadi va vazifalari.
50. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishning metodologik asoslari.
51. Rejalashtirishning metodlari.
52. Rejalashtirishning ko‘rsatkichlari.
53. Korxonada rejalashtirish tizimi va rejaning turlari.
54. Korxona faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar.
55. Korxona rejasining bo‘limlari va ko‘rsatkichlari.
56. Biznes-reja tushunchasi, turlari va tarkibi.
57. Xo‘jalik mexanizmining asosiy elementlari, ularning tavsifi va o‘zaro aloqasi.
58. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotini shakllantirish mexanizmini o‘ziga xos xususiyatlari.

59.Bozor iqtisodiyotining qaror topishi sharoitida xo‘jalik yuritishning turli shakllarining rivojlanishi.

60.Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar.

61.Iqtisodiy ishning mohiyati va mazmuni, bozor munosabatlarning shakllanish sharoitida uning ahamiyati.

62.Xizmat sohasi korxonalari va tashkilotlari faoliyatini taxlil qilishning mazmuni va vazifalari.

63.Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishning usul va uslublari.

64.Iqtisodiy axborotlar tushunchasi, turlari va iqtisodiy ishdagi ahamiyati.

65.Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat sohasida prognozlashtirish va rejalashtirish.

66.Prognozlash va rejalashtirishni mohiyati, maksadi, vazifalari va ahamiyati.

67.Prognozlashtirish va rejalashtirishning umumiy qoidalari.

68.Prognozlashtirish va rejalashtirishning turlari va bosqichlari.

69.Aniq maqsadli (strategik) rejalashtirish va uning mazmuni.

70.Biznes reja, uning ahamiyati va ishlab chikish tartibi.

71.Baho tushunchasi, mohiyati, turlari va ahamiyati.

72.Bahoning elementlari.

73.Raqobat sharoitida bahoning shakllanishini metodologik asoslari.

74.Bahoni shakllanishi va belgilashni metodologiyasi.

75.Tannarx tushunchasi, uning elementlari, yangi sharoitda shakllanishi.

76.Bahoni davlat tomonidan tartibga solinishi.

77.Baho va inflyasiya.

78.Xizmat sohasi korxonalari daromadlarining mohiyati, ahamiyati.

79.Daromadlarning turlari.

80.Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar sotishdan olingan va asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar tarkibi.

81.Asosiy bo‘lmagan faoliyatdan va moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar tushunchasi.

82.Favqulotdagi daromatlarni kelib chiqishi va tarkibi.

83.Xizmat sohasi korxonalari, tashkilotlari va aloxida tadbirkorlarning yalpi daromadlarini tahlili.

84.Xizmat sohasi korxonalarida yalpi daromadlar hajmini va tarkibini prognozlash va rejalashtirish.

85.Xizmat sohasining foydasi, uning mazmuni va ahamiyati.

86.Foydaning shakllanishi va ishlatilishi.

87.Xizmati sohasi korxonalari va tashkilotlari foydasiga (rentabelligiga) ta'sir qiluvchi omillar.

88.Foyda va rentabellikni tahlili.

89.Foyda va rentabellikni prognozlash va rejalashtirish.

90.Xizmat sohasi korxonalari rentabelligini oshirishning iqtisodiyotga ta'siri.

91.Resurslar tushunchasi va tarkibi

92.Asosiy fondlar tushunchasi, tarkibi va baholanishi

93.Asosiy fondlarning ko'rsatkichlari

94.Aylanma fondlar (mablag'lar) tushunchasi

95.Aylanma fondlar (mablag'lar) ning harakati va ahamiyati

96.Aylanma fondlar (mablag'lar)tarkibi

97.Aylanma fondlar (mablag'lar) ning ko'rsatkichlari

98.Moliyaviy resurslar mohiyati va ularni savdo korxonalari samaradorligini oshirishda ahamiyati

99.Moliyaviy resurslarning manbalari

100.Moliyaviy resurslarning ko'rsatkichlari

## BAHOLASH ME'ZONLARI

Suhbat jarayonida abituriyentlarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:

-mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati;

-belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashdan asosiy maqsad;

-belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalar;

-belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasida bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

**Yuqorida ko'rsatilgan savollar yuzasidan o'tkazilgan suhbat jarayonida olish mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori 100 ballni tashkil etadi va baholash yaxlitlangan holda butun sonlarda ifodalanadi. Bunda har bir savol uchun maksimal 25 balldan ajratiladi.**

Suhbat natijalari bo'yicha to'plagan umumiy ball quyidagi mezonlarga asoslanadi.

| T/r. | Baho       | Xususiy ball |
|------|------------|--------------|
| 1    | A'lo       | 86,0-100     |
| 2    | Yaxshi     | 71,0-85,0    |
| 3    | Qoniqarli  | 56,0-70,0    |
| 4    | Qoniqarsiz | 0-55,0       |

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi **55 balldan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.**

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi taxriri).
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2017 – yil 7 – fevral. Xalq so'zi, 2017 – yil 8 – fevral.
3. Mirziyoyev Sh.M O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020
4. Xodiyev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. T.: TDIU, 2010.
5. Samadov A.N., Ostanaqulova G.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: Moliya-iqtisod, 2008.
6. Qosimova M.S., Yusupov M.A., Ergashxodjaeva Sh.J. Marketing. –T.: TDIU -2010.
7. Abdukarimov B.A. va boshq. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2013.
8. Mirzayev Q.J., E.Sh.Shavqiyev, B.K.Janzakov. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik. – Samarqand: “Zarafshon”, 18.11.2021. –310 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

9. Abdukarimov B.A., F.B.Abdukarimov Savdo iqtisodiyoti, I-qism – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
10. Abdukarimov B.A., Q.J.Mirzayev, T.S.Sharipov, A.S.Sheraliyev Savdo iqtisodiyoti, II-qism – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
11. Sultonov Sh.A. Kichik biznes va tadbirkorlik: xududiy muammolari va yechimlari. – Monografiya. SamISI. 2013.
12. Maxmudov L.U., Raximov Z.K. Servis sohasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. SamISI, Samarqand, 2021. – 246 b.

### **Internet saytlari**

- 13.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 14.[www.edu.uz](http://www.edu.uz)
- 15.[www.e-ilm.uz](http://www.e-ilm.uz)
- 16.[www.uzinfocom.uz](http://www.uzinfocom.uz)